

“Mexatronika va Robototexnika” yo’nalishini modernizatsiya qilish bo’yicha xalqaro loyiha

O’quv va ilmiy ishlarning sifatini oshirish, xorijiy mamlakatlar, xususan Evropa mamlakatlarning tajribasini o’rganish va o’quv jarayoniga tatbiq etish maqsadida Toshkentdagi Turin politexnika universiteti ko’plab tadbirlarni amalga oshirmoqda.

“MechaUZ: Innovatsion g’oyalar va raqamli texnologiyalar orqali O’zbekistonda bakalavr darajasi uchun mexatronika va robototexnika yo’nalishining modernizatsiyasi” xalqaro loyihasi ham Evropa Ittifoqining Erasmus + dasturining 609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-SBHE-JP grant shartnomasi asosida universitet tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatdir.

Zamonaviy talablar va takliflarga javob beradigan, zamonaviy o’quv dasturi asosida o’qitiladigan, zamonaviy moddiy-texnik uskunalar va o’quv laboratoriyalari bilan jihozlangan O’zbekiston Respublikasi oliy o’quv yurtlarining “Mexatronika va robototexnika” bakalavriat yo’nalishi bo’yicha kadrlar tayyorlash bo’yicha loyiha 2020-2022 yillarga mo’ljallangan.

Joriy yilning 10-14 fevral kunlari Saloniki shahrida (Gretsiya) Sheffild (University of Sheffield) universitetining xalqaro fakultetida “Kick-off Meeting” loyihasi hamkorlarining birinchi uchrashuvi bo’lib o’tdi. Ushbu tadbirda O’zbekistonning 6 OTMlari, Evropadagi 6 universitet va Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi vakillari ishtirok etdilar.

Loyiha doirasidagi hamkor ta’lim muassasalari:

- Xalqaro Xellenik universiteti, Gretsiya
- Janubiy-Sharqiy Yevropa tadqiqot markazi, Gretsiya
- Vilnyus Gediminas texnika universiteti, Litva
- Liyepaya universiteti, Latviya
- Vidzeme amaliy fanlar universiteti, Latviya
- Viana-du-Kashtelu politexnika instituti, Portugaliya
- Andijon mashinasozlik instituti, O'zbekiston
- Toshkentdagi Turin politexnika universiteti, O'zbekiston
- Farg'ona politexnika instituti, O'zbekiston
- Toshkent axborot texnologiyalari univertiteti, O'zbekiston
- Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, O'zbekiston
- Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbekiston
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston

Uchrashuv natijalariga ko'ra, mexatronika va robototexnika yo'nalishi rivojlangan mamlakatlarda ta'lim uchun o'quv dasturlarini tayyorlash va tahlili, yangi magistratura dasturini ishlab chiqish, yangi kurslar yaratish va O'zbekiston o'qituvchilari, ishchilari va muhandislari uchun treninglarni tashkil etish, shuningdek yangi vazifalarni belgilash masalalari muhokama qilindi. va keyingi yig'ilishlarni tugatish vaqti.



